

## FIZIKA FANINI O'QITISHDA ATAMALAR BILAN ISHLASH

*Mirzakarimova.M.T**Buloqboshi tumani XTB ga qarashli 22-umumiy o'rta ta'lim maktabi**Fizika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Fanlarni o'qitishda atamalar bilan ishlash va dars samaradorligini yanada oshirish

**Kalit so'zlar:** zanjir usuli, fizik atamalar, dinomometr, atom, molekula,...

Umumta'lim maktablarida fizika fani 6-sinf dan boshlab o'qitiladi. O'quvchilarni yangi fanga qiziqtirish uchun, qiziqishlarini yanada orttirish uchun dars mashg'ulotlarini o'yin tarzida olib borish yaxshi samara beradi. Har bir yangi mavzu o'quvchilarga o'rgatilayotganda albatta fanga oid yangi atamalar uchraydi. O'qituvchi atama va uning izohini hayotiy misollar yordamida tushuntirib beradi. Bu esa o'quvchilarning so'z boyligini oshirib beradi. Uyga topshiriq berilayotganda "atamalarni yod olish" vazifasining qo'shimcha topshiriq sifatida berilishi fanga oid so'z boyligining yanada ortib borishiga olib keladi.

O'qituvchi tomonidan Takrorlash darslarida quyidagi interfaol usullardan foydalanilsa, o'quvchilarning fanga bo'lgan muhabbati yanada rivojlanadi.

**I-usul:** O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. "ZANJIR USULI" , "aytilgan atamani takrorlamaslik" sharti bilan boshlanadi. Bunda o'quvchilarning ziyrakligi sinaladi.

**II-usul:** O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va birgalikda faol harakat qiladilar. Bu usul aytilgan atamaning oxirgi harfi bilan boshlanadigan so'zni aytish sharti bo'yicha amalga oshiriladi.

1-guruh	2-guruh
Atom	Molekula
Atmosfera	Amper
Radius	Sekund

**III-usul.** O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. 1-guruh atama aytadi va 2-guruh shu so'z haqida ma'lumot beradi. Bunda o'quvchilarning topqirligi talab etiladi.

1-guruh: Modda

2-guruh: Moddalar molekulalardan tuzilgan. Tabiatda 3 hil holatda uchraydi.....

**IV-usul:** O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va har bir guruh uchun alohida "kalit so'z" beriladi. Kalit so'zidagi harflardan boshlangan atamalar yoziladi.

H	A	R	A	K	A	T
A	T	A	M	E	T	A
J	M	K	P	L	O	R
M	O	E	E	V	M	O
	S	T	R	I		Z
	F	A		N		I
	E					
	R					
	A					

**V-usul:** o'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhda ikkitadan harf beriladi. Shu harflardan boshlangan atamanlarni vatman qog'ozga marker orqali yozish o'yini o'tkaziladi. Qaysi guruh berilgan harflardan boshlangan atamani ko'p yozsa, o'yinda g'olib bo'ladi.

M	D
Massa	Dinamika
Molekula	Diffuziya
Modda	Dinomometr
.....	.....

**Foydalanilgan manba:**

1. www. google. Uz sayti